

“BOBURNOMA”DAGI ORONIMLAR TALQINI VA TAVSIFI

Jalilova Madina Murotovna

NamDU 10.00.01-O'zbek tili ixtisosligi

bo'yicha mustaqil izlanuvchi.

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida berilgan oronimlarining nomlanish motivlari berilgan, izoh va talqinlari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: oykonim, oronim, lisoniy omil, nolisoniy omil, etimologiya, motiv, etnooronim, zooronim.

Аннотация: В статье поясняются мотивы наименования оронимов данных в “Бобурноме” Захириддина Мухаммада Бабура пояснения и толкования.

Ключевые слова: ойконим, ороним, лингвистический фактор, нелингвистический фактор, этимология, мотив, этноороним, зоороним.

Annotation: In the article, the motivations for naming the oronyms given in “Boburnoma” by Zahiriddin Muhammad Babur, explanations and interpretations are explained.

Key words: oikonym, oronim, linguistic factor, non-linguistic factor, etymology, motif, ethnooronym, zooronym.

Oronim (yun.oros – tog‘ + onoma - atoqli ot) – *yer yuzasi relyefidan boʻrtib, koʻtarilib chiqqan har qanday baland joylar (togʻ, qir, tepa, choʻqqi, dovon va boshqalar) atoqli oti.*¹ Oronimlarning tadqiqi tilning va uning toponimik, jumladan, oronimik tizimining taraqqiyoti hamda lisoniy takomilini, oronimlarning boshqa toponimik birliklar bilan munosabatini, ular mansub hudud dialekti, geografiyasi, tarixi, etnografiyasi, geodeziyasi, flora va faunasi, togʻ turizimiga xos tabiati va boshqa imkoniyatlarini oʻrganish nuqtai nazaridan ham

¹ Бегматов Э, Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати.– Наманган, 2006. – Б. 63.

ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega, biroq “Boburnoma”da keltirilgan oronimlar maxsus to‘planmagan, tadqiq etilmagan.

Memuardagi jami 161ta oronimlar keltirilgan bo‘lib, ular lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlariga ko‘ra dastlab ikki guruhga bo‘linadi:

I. Tabiiy-geografik oronimlar.

II. Ijtimoiy-iqtisodiy oronimlar.

Memuarda, asosan, tabiiy-geografik oronimlar uchraydi. Tabiiy-geografik oronimlar o‘z ichida bir nechta guruhlariga bo‘linadi:

1. Obyektning rang-tus belgisi bilan bog‘liq oronimlar: bunday oronimlarning nomlanishiga shu joyning tashqi ko‘rinishi, geografik joylashuvi asos bo‘ladi. “Boburnoma”ning muallifi asarda shunchaki oronimlarni sanab o‘tmaydi, balki til ilmining eng qiziqarli sohasi – etimologiya xususida ham juda muhim, teran ilmiy kuzatishlarini bayon etadi. So‘z etimologiyasi joy nomiga nisbatan tekshirilganda Bobur o‘sha so‘zning yasalishi va nom qo‘yilishiga tarixan yondashadi. Joy nomlarini izohini, atalishiga sabab bo‘lgan voqealarni, guvohi bo‘lgan hodisa va o‘zining xulosalarini birma-bir keltiradi. Masalan, Ko‘hi Safid tog‘ini shunday izohlaydi: *Ko‘hi Safid Ningnahorning janubida voqi’ bo‘lubtur. Bangash bila Ningnahorga vosita ushbu tog‘dur. Otliqqa yo‘l yo‘qtur. To‘qquz rud ushbu tog‘din chiqar, bu tog‘din qor hargiz o‘ksumas. Bu jihatdin g‘olibo Ko‘hi Safid derlar.*² Ko‘hi Safid fors- tojikcha so‘z bo‘lib, *ko‘h – tog‘, safid – oq, ya’ni, oq tog‘* degan ma’noni anglatadi. Tog‘ning bunday nomlanishiga, tog‘dan hech ham qor arimasligini sabab qilib keltiradi. Shuningdek, rang-tus belgisi bilan bog‘liq oronimlarga *Qorako‘ba* ko‘talini misol qilib keltirishimiz mumkin: *Tonglasi ko‘chub, og‘ir patrol va tevani Xoja Mirmironga boshlatib, Jargotu va Darvoza yo‘li bila va Qaro Ko‘ba ko‘tali bila yiborib, o‘zimiz jarida otliq bila ilg‘ob, Anbaxir ko‘tali bila oshib, namozi shomdin ertarak paniyalij tushuldi.* (164-b.) Asarda Bobur ko‘tal deya dovonni (band) nazarda tutgan. Dovonning qaro rang bilan atalishi esa uning tuprog‘i bilan bog‘liq.

² 3.M.Бобур. Бобурнома.—Тошкент: Шарқ нашриёти, 2002. — Б.140. Мазкур нашрга яна мурожаат қилинганда жилди ва саҳифаси қавс ичида кўрсатилади.

Oqko'tal – Jizzaxdan Samarqandga boradigan yo'ldagi dovon, hozirgi Oqtosh qishlog'idan g'arbda joylashgan: *Avval taxtg'a o'lturg'onida ...Samarqand olmoq doiyasi bila cherik torrib, Oqko'taldin o'tub, Raboti Sug'd va Kanboy navohisig'a keldi.* (72-b)

2. Obyektning hajm-xususiyati bilan bog'liq oronimlar: bunday oronimlarning nomlanishiga hududning uzun-qisqaligi, baland-pastligi asos bo'ladi: *Tul dovoni* – uzunligi uning nomlanishiga asos bo'lgan: *Yuqqoriroq Xavok ko'talidur, andin quyiroq Tul, andin quyiroq Bozorak. Bu uch ko'taldin yaxshiroq'i Tuldur. Vale yo'li bir nima uzunroqdur. G'olibo bu jihattin Tul derlar. Tul va Bozorak Sarobga tushar. Bozorak kutalini Sarob eli Porandiy otliq kentiga inar uchun Porandiy ko'tali derlar.* (138-b.)

Xoja Regiravon – Kobul viloyatining shimoliy-g'arb tomonidagi kichik tog'. Kurrayi Toziyon va Dashti Shayx dashtlari orasida joylashgan: *Bu ikki dashtning orasida bir kichikrak tog' tushubtur, bu tog'da bir parcha qum tushubtur, tog' boshidin, tubigacha Xoja Regiravon derlar.* (112-b). Bu yerda *reg* so'zi fors-tojik tilida *qum, ravon* esa *ravidan* (*yurmoq, oqmoq*) fe'lining hozirgi zamon shakli (*rav*) va unga *-on* qo'shimchasi qo'shilib, *ravon*, ya'ni hozirgi zamon sifatdoshi (*ravon-oqar*) yasalgan. Demak, qum tog'ning ustki qismidan pastga, ya'ni tog'ning etak qismiga doimo oqib tushub turganligi uchun shunday atalgan. *Xoja* so'zi esa tog' kulti sifatida, uni muqaddaslashtirish, ulug'lashtirish ma'nosida qo'shilgan. Tog' nomi joyning xususiyati asosida kelib chiqqan.

Darbandi Ohanin – adib Xisravshoh hukmronlik qilayotgan hududlar chegarasida *Qahlug'ni* tilga oladi va bu darani *Darbandi Ohanin* deb ham atalishini bayon etadi: *Qahlug'dinkim, Darbandi Ohanin ham derlar, Hindukush tog'igacha Sulton Mahmud mirzog'a taalluq viloyot tamom aning taxti tasarrufida edi.* (105-b). *Darband* – Xisor tog'laridagi dara. U tor bo'lganligi sababli darvoza vazifasini bajargan, strategik jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan. *Darband* (forsa. dar– eshik; dara+band – berk, mustahkam). Tabiiy to'siq, g'ov; tog' orasidagi o'tish qiyin bo'lgan tor yo'l³. Daraning nomlanishiga uning tabiiy

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. www.ziyouz.com kutubxonasi. B.559.

<https://scientific-jl.com/>

xususiyati asos bo'lgan. Yozma manbalarda nomi turlicha, ammo mazmunan bir xil: qadimgi turkiy tilda – *Temir qapug'* (qapug' – darvoza), *Darbandi Ohanin* (forscha), *Bobul-hadid* (arabcha), *Qahlag'a* (mo'g'ulcha) qo'llangan⁴. Demak, Boysun tog'laridagi *Temir darvoza* darasi to'rt tilda to'rt xil aytilgan, ammo bir ma'noni anglatgan. Memuarda esa, mo'g'ulcha va forscha variantlari: *Qahlag'a*, *Darbandi Ohanin*, *Darband* shakllarida berilgan: *Ul yil Samarqandtin chiqib, Xisor kelganda o'zbekning jami xon va sultonlari yig'ilib, ittifoq qilib, bizning ustumizga kelur azimat bila Darbanddin o'ttilar*. (192-b). H.Hasanov bu daraning *Buzg'olaxona* – “Echkixona” va *Qo'hlug* degan mahalliy nomlari ham borligini qayd etgan⁵.

3. Tashqi ko'rinishi va shakliy tuzilishi asosida nomlangan oronimlar:

Haftbacha dovoni huddi shu asosda nomlangan bo'lib, fors-tojikcha (“Haft”-yetti, “bacha”- bola) degan ma'noni anglatadi. Bobur Badaxshon va Kobul orasida yastangan Hindukush tog'ida joylashgan Haftbacha dovonining nomlanishini shunday dalillaydi: *Yana bir Parvon yo'lidur, ulug' ko'tal bila Parvon orasida yana yetti ko'tal bor uchun Haftbacha derlar*. (138-b.) Ya'nikim, Katta dovon bilan Parvon orasida yana yetti dovon borligi uchun bu dovonni Haftbacha (yetti bolali) deb atashgan.

Bobur Hindukush tog'ini hindlar Savalak Parbat deb ataganlarini yozadi va buning nomlanish motivini juda tushunarli izohlaydi: *Hind eli Savalak Parbat derlar, hind tili bila “sava” – rub, “lak” – yuz ming, “parbat” – tog', ya'ni rub va yuz ming tog'kim, yuz yigirma besh ming tog' bo'lgay. Ushbu tog' Kobulda Hindukushga mavsumdur. Bu tog'larda qor o'ksumas. Kobuldin bu tog' sharqqa boqa boribtur*. (197-b.) Hindukush tog'i Osiyodagi yirik tog' tizmasi bo'lib, 800 km chamasi. Shuning uchun bo'lsa kerak hind xalqi bu tog'ning uzunligiga ishora qilib, Savalak Parbat – Yuz yigirma besh ming tog' deb atashgan. Bobur esa asarda bu tog'ni Hindukush, Hindukush tog'i shakllarida nomlagan. Tog'ning nomi ba'zan *Hinduko'h* (Hind tog'i) tarzida ham yozilgan⁶.

⁴ Бобур энциклопедияси. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.219.

⁵ Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965.

⁶ Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – Б.120.

*Ko'htan tog'i (Ko'hi tang) – Movarounnahr janubidagi tog' tizmasi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari chegarasida. Pomir Olay tog' sistemasining janubi-g'arbidagi sistema. O'zbekiston va Turkmaniston hududida. Boysuntog'ning janubiy davomi: Andin beri Qahka bila **Ko'htan tog'ining janub tarafidagi viloyat ...Sulton Mahmudning tasarrufida edi.** (48-b). Oronim forscha ikki so'zning birikuvidan *ko'h – tog' + tang – tor (tor tog')* yasalgan bo'lib, *tor tog'* ma'nosini anglatadi.*

*Ko'habchacha (Ko'hi bacha) – forscha kichik tog', tog'ning bolasi ma'nosini anglatadi. Kobulning shimolidagi joylashgan: **Ko'habchachakim, o'rduning olida edikim, urush ushbu Ko'habchachaning olida voqi bo'ldi, kufforning boshidin ushbu Ko'habchachaning ustida kalla manora farmon bo'ldikim, qo'porg'aylar.** (229-b).*

4. Zooronimlar – hayvon, parranda va boshqa jonzotlarning nomlari bilan atalgan oroobyektlar:

Qarg'abuloq – Kobul shahri yaqinidagi tepaliklar. qo'shma tarkibli oronim bo'lib, ot+ot birikuvidan yasalgan: Ahmad Qosim ko'hbur va ba'zi bir necha yigitnikim, Mirzoxonning so'ngicha yiborilib edi, Qarg'a buloq pushtalarida Mirzoxonga yetarlar. (151-152-b).

*Uqobayn – Kobul shahrida joylashgan tog' etagining janubiy-g'arb qismi. Bobur uni Shohi Kobul tog'idan ayrilib chiqqan bir tumshuq deb keltirgan: Shohi Kobul tog'idin bir tumshuq ayrilib kelibtur, **Uqobayn** derlar.* (107-b). Uqobayn – uqob (arabcha *burgut*) + -ayn (arab tilida juftlik qo'shimchasi) birikuvidan yasalib *ikki burgut* degan ma'noni anglatadi.

*Murg'on tog'i – Qandahor viloyatigagi tog'. Boburning askarlari Shohbek Arg'unni Murg'on tog'i etaklarigacha ta'qib qilgan: Ushbu fursatta yog'iyini qochurub, bu ariqlardin **Murg'on tog'ining** tumshug'i sari o'ttuk.* (158-b). *Murg'on* so'zi fors-tojikcha (*murg' – qush*) *qushlar joyi, qushlarga boy tog'* ma'nosini beradi.

II. Ijtimoiy-iqtisodiy oronimlar

1. **Antropoonimlar** – kishi nomlari, laqablari, taxalluslari, familiyalaridan yasalgan oroobyekt nomlari:

Dehi Yaqub tangisi – Kobul yaqinida, Hindiston yo'lida joylashgan dara. Asarda bu tangi va shu nomdagi daryo haqida ma'lumot berilgan. Bobur Shohi Kobul tog'i haqida so'zlab, Devarin tangisidan boshlanib, bu tangida tugashini qayd etgan: *Bu tog'ning ibtidosi Devarin tangisidindur. Dehi Yaqub tangisida tug'anur.* (107-b).

Ko'hi Mehtar Sulaymon – Sind daryosining g'arbidagi tog' tizmasi. Hozir Pokiston Respublikasi hududida. Oronim qo'shma tarkibli bo'lib, "tog'" ma'nosini ifodalovchi fors-tojikcha *ko'h + mehtar* (forsa – ulug', janob, saroy mansablaridan biri) hamda Sulaymon antroponimining birikuvidan yasalgan: *Jahongir mirzo va beklar so'zlashib turlar, ba'zilar debturlarkim, Dashtning g'arbi tog'iningkim, Ko'hi Mehtar Sulaymon derlar, ushbu Dasht bila Dukining orasida tushub tur, tumshug'idan evrulsa, yo'l tuzdur.* (120-b.)

Muhammad Pix (dovon) – Kobuldan janubi-sharq tomondagi dovon. Bobur 1505-yil yanvarda Kobuldan Sulaymon tog'lari tomonga yurishi chog'ida u orqali o'tgan: *...Hinduston azimatini fasx qilib, Jomdin ko'chub, Bora suyini o'tub, Muhammad Pix dobonig'a yovuqroq kelib tushuldi.* (118-b).

Xoja Xovand Sayyid tog'i – Shayx, avliyo. Kobulning Bog'oti Xum navohisiga yaqin joydagi mozorini Bobur ziyorat qilgan. Asarda mozor atrofi uning nomi bilan aytilishi, uzumi yaxshi bo'lib, undan chog'ir tayyorlanishi va achchiqligi bilan mashhurligi ham qayd etilgan: *Xoja Xovand Sayyid Domani ko'hiyning chog'iri tundluq bila mashhurdur.* (108-b).

Xoja Ismoil tog'i – Sulaymon tog'larining bir qismi: *Yana Xoja Ismoil va Dasht, Duki va Afg'oniston tog'lari bir yo'sunluq tog'lardur.* (115-b).

2. **Etnoonimlar** – urug', qabila, millat, xalq nomlari asosida shakllanadi:

Ko'hi Jud – Bhiradan shimoldagi Ko'hi Jud oronimi Jud etnonimiga nisbat berib nomlanganligini Bobur qayd etgan: *Bu tog'ii "Zafarnoma"da va ba'zi kitoblarda "Ko'hi Jud" bitib turlar, vajhi tasmiyasi ma'lum emas edi, so'ngralar ma'lum bo'ldi: bu tog'da bir ota naslidin ikki xil el bor. Birini jud derlar va birini*

janjuha. Bu tog 'dag'i va Nilob bila Bhira orasidag'i el va ulusg'a bular qadimdin hokim va farmonravo bo'la kelgandurlar. ...Bu tog 'judka mansub qilib, **Ko'hi Jud** debturlar. (165-166-b.) Jud qavmi bu tog'dagi va Nilob bilan Bhira orasidagi el-ulusga qadimdan hokimlik qilib, ularni boshqarib kelganligi uchun va bu tog'ni Jud eliga qarashli ekanligini bildirib *Ko'hi Jud* deb nomlaganlar. Demak, bu oronimning nomlanishiga Jud etnonimi motiv bo'lgan.

Qipchoq ko'tali – Hindukush tizmasidagi dovonlardan biri, Andarob va Qizilsuv daryolari ko'tarilish joyi ustida. 1503-yil yozida Kobul tomon Qizilsuv yoqalab borayotib, bu dovondan oshib o'tgan. Bobur Hindukush tog'idan yetti yo'l bilan o'tish mumkinligini biri Qipchoq ko'tali bo'lib yaxshi yo'l ekanligini qayd etgan: *Yana bir yo'l Qipchoq ko'talidur. Andarob suyi bila Qizil suvning qotilishig'a inar.* (109-b).

Xulosa qilib aytganda, Bobur nafaqat shoh va shoir, balki mashhur tilshunos olim hamdir. Uning "Boburnoma" qomusiy asari tilshunoslikning onomastika sohasini o'rganishdagi eng bebaho tarixiy manbalardan biridir. Chunki bu shoh asarda adibning yuksak badiiy mahorati, sodda va tushunarli uslubi o'z aksini topgan bo'lib, unda juda ko'p oronimlar qayd etilgan, izohlangan, nomlanish motivlari, etimologiyasi, variantlari berilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бегматов Э, Улуков Н. Ўзбек ономастики терминларининг изоҳли луғати.— Наманган, 2006.
2. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома.—Тошкент: Шарқ, 2002.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Бобур энциклопедияси. — Тошкент: Шарқ, 2014.
5. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. — Тошкент: Фан
6. Ҳасанов Ҳ. Географик номлар сири. — Тошкент: Ўзбекистон, 1985.